

O'QITISHNING FAOL PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

M. Ochilova ¹, S. Yuldasheva ²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida samarali o'qitish haqida, qolaversa o'qitishda faol pedagogik texnologiyalarining ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar haqida ayrim mulohazalar keltirigan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogik texnologiya, samaradorlik, didaktik o'yinlar, muammoli ta'lim, metod va usullar.

doi: <https://doi.org/10.2024/v2ew3x46>

O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar o'zida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uning mazmuniga milliy ruh singdirish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan xolda ilg'or uslublarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash kabi masalalarni aks ettiradi. Bu yo'nalish mazmun jihatidan kengayib, u ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalarini qo'llash, ta'limni va o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish asosida mazkur jarayonni individuallashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunamiz? Buning uchun, avvalo, texnologiya atamasini izohlash lozim. "Texnologiya" tushunchasi yunoncha "Texnos" (techne) va "logos" (Logos) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "Hunar fani" ni o'rganish degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872- yilda qo'llanilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb, hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud. V.P. Bospalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos boladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P. Bospalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirgi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q. N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ulami izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ularsiz pedagogik jarayon texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.



Har qanday pedagogik texnologiya qo'llanilishida didaktikaning asosiy va yordamchi tamoyillari (prinsiplari), albatta, amal qiladi:

¹ Ochilova Mehriniso Ilxomovna, Xudjand davlat universiteti

² Yuldasheva Saida Tashkulovna, SamDCHTI o'qituvchisi

- ma'lumdan noma'lumga;
- oddiydan qiyinga yoki murakkabga;
- aniqdan mavhumroqqa (abstraktga);
- kuzatishdan nazariy umumlashmalarga;
- umumiy yoki odatdagidan xususiyya yoki noodatdagiga va boshqalar.

Ayrim faol pedagogik texnologiyalar tavsifi haqida ma'lumotlar keltirilganda ularning qiyosiy bahosi oydinlashadi:




Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologialar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi.

Quyidagi sxemada didaktik o'yinli dars va uning turlari bilantanihamiz:

Didaktik o'yin texnologiyasi



Shunday qilib, didaktik o'yinli mashg'ulotlar orqali o'quvchi- talabalar yangi kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini hayotning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga o'rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'.Tolipov, D. Ro'ziyeva. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*.T.: Innovatsiyo-ziyo, 2019.
- [2]. *Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.*
- [3]. Golish L.V. *Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obuq red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.*
- [4]. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. *Pedagogik texnologiya: nazariya amaliyot. - T.: Fan, 2005.*
- [5]. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. *Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – T.: "Iqtisodiyot" nashr, 2011.*
- [6]. Golish L.V. *Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obuq red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005.*
- [7]. Axtamova, F., & Yarqulova , D. (2023). *Exploring the key features of four learning styles: a guide to personalized education. Innovative Development in Educational Activities*, 2(21), 27–30.
- [8]. kizi Akhtamova, Farangis Ulugbek. "Etymological features of phraseological expressions in English language." *Educational Research in Universal Sciences* 1.5 (2022): 337-340.
- [9]. Abdullayev A., Imansyah A. *The ways of word-formation in English language //Current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 5-9.*
- [10]. Abdullayev A. *Methodological approaches in teaching English language //Академические исследования в современной науке. – 2023. – T. 2. – №. 26. – C. 5-8.*

- [11]. Абдуллаев А. А. *Contents of linguopoetic analysis of artistic text* // *Международный журнал искусство слова*. – 2023. – Т. 6. – №. 5.
- [12]. Abdullayev A. A. *The role of clippings in English language* // *International scientific conference "innovative trends in science, practice and education"*. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 145-149.
- [13]. Болтакулова Г. *Лингвопрагматические особенности языковых единиц в контексте употребления* // *Иностранная филология: язык, литература, образование*. – 2019. – №. 2 (71). – С. 90-95.
- [14]. Boltakulova G. F. *Adverbial variants of temporal syntaxemes* // *Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives*. – 2016. – С. 194-198.